

**FUQAROLIK SUDLARDA DA'VO TARTIBIDA KO'RILADIGAN
ISHLARNING O'ZIGA XOS PROSESSUAL JIHATLARI VA ADVOKAT
ISHTIROKI**

**(Ushbu maqolani O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist, yuridik fanlar
nomzodi, proessualist olim S.A.Yakubovning yorqin xotirasiga bag'ishlayman).**

Sultonova To'tiyoxon Saidumarovna
yuridik fanlar nomzodi, Toshkent Davlat
yuridik universitetining mustaqil izlanuvchisi,
advokat.

Sud amaliyotidan kelib chiqib aytish joizki, fuqarolik sudlarida ko'pincha ishlar da'vo tartibida ko'riladi. Da'vo ariza negizida albatta da'vogarning talabi, buzilgan huquqi, ushbu huquqni sud orqali himoya qilish, yoki buzilgan huquqni tiklash masalasi yotadi. Da'vo tartibida ko'riladigan ishlarning o'ziga proessual jihatlari mavjud bo'lib, ushbu toifadagi ishlarda, albatta, huquq to'g'risida nizo bo'ladi.

Sudda da'vo tartibidagi ishlarning yuritilishi – da'vo talabini qo'zg'atish paytidan e'tiboran boshlanadi. Buzilgan yoki nizolashilayotgan fuqarolik huquqini himoya qilish to'g'risidagi talab sifatida ko'riladigan da'vo – sudda ish ko'rishning predmeti bo'lib, da'voning dalillar asosida isbotlanishiga qarab sud tomonidan qanoatlantiriladi yoki rad qilinadi.

Da'vo tartibida ko'riladigan ishlar ko'pincha sud amaliyotida murakkab ishlar toifasiga kiritiladi. Biroq, fuqarolik proessual qonunchiligida fuqarolik ishlari oddiy yoki murakkab ishlar toifasiga ajratilmagan. Ishni mazmunan ko'radigan sud(sud'ya) da'vo talablarining miqdori, qo'llash kerak bo'lgan moddiy huquq normasi, ishga jalb etish kerak bo'lgan manfaatdor shaxslar doirasi, ishni ko'rish vaqtida hal etiladigan masalalar, da'vogar va javobgarlarning soni, ish uchun ahamiyatga bo'lgan holatlarni aniqlash, ekspertiza tayinlash va boshqa holatlarni inobatga olgan holda sud amaliyotida ayrim da'vo tartibida ko'riladigan ishlar murakkab ishlar deb baholanadi.

Shuningdek, da'vo tartibidagi ishlarni ko'rishning o'ziga xos proessual xususiyati shundaki, taraflar o'zaro teng bo'lgan fuqarolik, mehnat, oila, uy-joy va boshqa huquqiy munosabatlarga doir nizolar bo'yicha buzilgan huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarni himoya etish uchun sudga murojaat qiladi.[1]

Proessualist olim ustoz, Sh.Sh.Shoraxmetov fikricha, “bu turdagi fuqarolik ishlarida manfaatdor shaxsning da'vo arizasi yagona asos bo'lib hisoblanadi. Da'vo asli arabcha so'z bo'lib, o'z haq-huquqlarini himoya etish haqida sud orqali yoki boshqa yo'llar bilan qo'yilgan talabdir. Proessualist olim ta'kidlashicha, da'vo deb

huquqning yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatning himoya qilinishi to'g'risida sudga yoki boshqa vakolatli tashkilotga murojaat etishiga aytamiz".[2]

Prosessualist olim S.A. Yakubov fikricha har qanday manfaatdor shaxs o'zining buzilgan huquqlarini himoya qilish uchun qonun bo'yicha o'rnatilgan tartibda sudga da'vo tartibida shikoyat qilishga haqli.[3]

E.Egamberdiyev ta'kidlashicha, da'vo buzilgan sub'yektiv huquq va qonun bilan qo'riqlanadigan qonuniy manfaatlarini prosessual qonunchiligida belgilab qo'yilgan tartibda ko'rib hal qilish uchun sudga murojaat qilgan jismoniy yoki yuridik shaxsning talabidir".[4]

Da'vo tartibida yuritiladigan fuqarolik ishlarda da'vo talabi, da'vo predmeti va da'voning asosi bo'ladi. Shuningdek, yuridik adabiyotlarda [5] da'vo tartibida yuritiladigan ishlarda da'voning asosi va da'vo predmeti bo'lishi qayd etilgan. Prosessualist olimlar Sh.Sh.Shoraxmetov, E.Egamberdiyev, S.A. Yakubov, M.Mamasiddiqov, D.Yu.Xabibullayevlar tomonidan chop etilgan adabiyotlarda da'vo tartibida ko'riladigan ishlarda da'vo predmeti va asosi bo'lishini ta'kidlaydilar.

Fikrimizcha, fuqarolik ishlari bo'yicha sud amaliyotidan kelib chiqib, sud amaliyotini tahlil qilgan holda aytish joizki, fuqarolik sudlarida da'vo tartibida ko'rilayotgan ishlarda uchta prosessual huquqiy element mavjud. Birinchi huquqiy element da'vo talabi, ikkinchi huquqiy element da'vo predmeti, uchinchi huquqiy element da'vo asosi. Masalan: da'vo arizada agarda oldi-sotdi shartnomasini haqiqiy emas deb topish bo'yicha sudda ish qo'zg'atilgan bo'lsa, ushbu holatda oldi-sotdi shartnomasini haqiqiy emas deb topish da'vo talabi, oldi-sotdi qilingan mulk da'vo predmeti, oldi-sotdi shartnomasini haqiqiy emas deb topish bo'yicha qayd etilgan moddiy huquq normasi da'voning asosi hisoblanadi.

Bu borada ustoz prosessualist olim, Sh.Sh.Shoraxmetov har qanday fuqarolik da'vosini ikki tomoni bor. **Birinchi**dan, moddiy-huquqiy tomoni, bunda, avvalo, da'vogarning javobgarga nisbatan muayyan nizoli moddiy huquqiy talabi bo'lishi, masalan, biror bir ashyoni topshirish, pul to'lanishi, zararning qoplanishi xususida talab qilinadi.

Ikkinchidan prosessual huquqiy tomoni bunda taraflar o'rtasida kelib chiqqan nizoning mazmunan hal qilinishi va buzilgan yoki nizoli huquqning qo'riqlanishi to'g'risida sudga iltimos bilan murojaat qilinadi. Da'voning mazkur har ikkala tomoni birga qo'shilgandagina, da'vo nizoli huquqni himoya qilish vositasi bo'lib ko'riladi" [6] deb ta'kidlaydi.

S.A. Yakubov ushbu fikrga qo'shilgan holda fuqarolik sudlarda da'vo tartibida ko'riladigan ishlarda, da'voning predmetidan kelib chiqib, har qanday da'vo ikki turga bo'linadi, birinchidan, prosessual jihatlari bo'yicha, ikkinchidan, moddiy huquqiy munosabatlardan kelib chiqqan holda" [7] deb fikr bildiradi.

S.A. Yakubov ta'kidlashicha, da'vo tartibida ko'riladigan ishlarda, da'vogar,

da'vo talabini asoslab berishi kerak. Agarda da'vo talabi asoslab berilmasa, ushbu ishda da'vo predmeti mavjud bo'lmaydi. Har qanday da'vo tartibida ko'riladigan ishlar faqat o'zigagina tegishli bo'lgan individual xususiyatga ega bo'ladi.[8]

Da'vo tartibida ko'riladigan ishlar advokatdan mehnat va o'z ustida ishlashni talab qiladi. Advokat da'vogar tomonidan ishtirok etgan vaqtda da'vo talabi, da'vo predmeti va da'vo asosi bo'yicha ishlaydi va dalillar to'plashi lozim bo'ladi. Masalan: Oldi-sotdi shartnomasini haqiqiy emas deb topish bo'yicha sudga da'vo talabi kiritilgan bo'lsa, ushbu holatda da'vo predmeti uy-joy bo'lsa, advokat ushbu uy-joy ya'ni nizo predmetidan kelib chiqib, qanday asoslarga ko'ra oldi-sotdi shartnomasini haqiqiy emas deb topish yuzasidan dalil to'plashi lozim bo'ladi. Da'vo talabidan kelib chiqib, da'vo predmetiga nisbatan asoslash moddiy huquq normasi va hujjatlar yig'indisi bilan asoslanadi. Jumladan: O'zR FKning 113-moddasidan 127-moddasigacha bitimlarni haqiqiy emas deb topish asoslari ko'rsatilgan bo'lib, umumiy asoslarda oldi-sotdi shartnomasi ikki tomonlama bitim bo'lganligi sababli, advokat oldi-sotdi shartnomasini haqiqiy emas deb topish bo'yicha, ushbu qonunda ko'rsatib o'tilgan huquqiy me'yorlarga murojaat etadi, hamda moddiy huquq normasi bilan asoslab berishi kerak bo'ladi.

Jumladan, advokat oldi-sotdi shartnomasini haqiqiy emas deb topishda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2006 yil 22 dekabrda o'zgartishlar bilan amalda bo'lgan "Sud amaliyotida bitimlarni tartibga soluvchi qonunchilik normalarini tatbiq qilishda vujudga keladigan ayrim masalalar to'g'risida"gi Plenum qarorida ko'rsatib o'tilgan rahbariy qoidalarga amal qilishi lozim bo'ladi.

Da'vo tartibida ko'riladigan fuqarolik ishlarida taraflar proses ishtirokchilari ichida markaziy va asosiy o'rinni egallaydi.

Aynan taraflar fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan kelishmovchiliklarning manbai hisoblanadi, ularning tashabbusi bilan fuqarolik sud ishlarini yuritish qo'zg'atiladi, aynan ular o'rtasida kelishuv bitimining tuzilishi ish yuritishni tugatishga olib keladi. Yuridik adabiyotlarda ham taraflarning nizoli huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'risidagi fuqarolik ishi bo'yicha ishtirok etuvchi shaxslar ichida asosiy shaxslardan iborat ekanligi e'tirof etiladi (M.S.Shakaryan). [9]

S.A.Yakubov ta'kidlashicha, sudlarda da'vo tartibida yuritiladigan ishlarda taraflar nizodagi moddiy huquq normasidan kelib chiqib, nizo predmetiga nisbatan talablarini bildiradi. Da'vo tartibda yuritiladigan ishlarning o'ziga xos prosessual huquqiy tabiati bo'lib, ushbu toifadagi ishlarda da'vogar va javobgar ishtirok etadi.[10]

Da'vogar deganda, o'zining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat etgan yoki manfaatini ko'zlab ish qo'zg'atilgan shaxsga aytiladi.[11]

Mazkur ta'rif da'vogarning fuqarolik prosessidagi ishtirokining ikki shakli mavjudligini ko'rsatadi: **birinchidan**, da'vogar deganda, o'zining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat etgan shaxs tushunilsa, **ikkinchidan**, da'vogar deb boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat qiluvchi shaxslarning arizasiga ko'ra ish qo'zg'atilgan shaxs tushuniladi. Birinchi holatda da'vogar prosessni boshlab beradi, ikkinchisida esa, sud prosessi boshlanganligi haqida xabardor qilingan holda sud tomonidan jalb etiladi. Shuning uchun ham adabiyotlarda da'vogar bilan fuqarolik ishini qo'zg'atgan shaxslar tushunchasi har doim ham bir-biriga to'g'ri kelavermasligi haqida fikr-mulohazalar ilgari suriladi.[12]

Javobgar da'vogar talabiga muvofiq sud tomonidan da'vogarning buzilgan huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini yuzasidan javob berish uchun jalb etilgan shaxs hisoblanadi.

Da'vogarning fikricha, javobgar bu uning sub'yektiv huquqlarini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatini buzgan shaxs hisoblanadi.

Shunday qilib, da'vogar va javobgar nizoli huquqiy munosabat sub'yektlari hisoblanib, ularning prosessual manfaatlarini bir-biri bilan zid. Sud hal qiluv qarori ham birinchi navbatda ularga nisbatan tatbiq etiladi. Taraflar zimmasiga sud xarajatlarini to'lash majburiyati yuklatiladi.

Ta'kidlash kerakki, taraflar fuqarolik prosessi ishtirokchilari ichida markaziy va asosiy o'rinni egallaydi. Chunonchi, taraflar fuqarolik – huquqiy kelishmovchiliklarning manbai hisoblanib, bunday nizolarni sud tartibidan o'zgacha tartibda hal etish mumkin bo'lmaydi. Bu esa taraflarning fuqarolik prosessual munosabatlari sub'yektlari hisoblangan shaxslar tizimida asosiy o'rinni egallashi haqida xulosa qilishga asos bo'ladi. Chunki aynan taraflarning tashabbusi bilan fuqarolik sud ishlarini yuritish qo'zg'atiladi, aynan ular o'rtasida kelishuv bitimining tuzilishi ish yuritishni tugatishga olib keladi.

Huquqiy adabiyotlarda ham taraflar ularning nizoli huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'risidagi fuqarolik ishi bo'yicha ishtirok etuvchi shaxslar ichida asosiy guruh shaxslardan ekanligi e'tirof etib kelingan (M.S.Shakaryan). [13]

Hozirgi kunda fuqarolik prosessual huquqi fanida “taraflar” tushunchasiga nisbatan nazariy fikrlar bildirib o'tilgan va mazkur masala mamlakatimizning ayrim huquqshunos olimlarining ishlarida u yoki bu darajada ilmiy tadqiq qilingan. Ayniqsa, taraflar va ularning prosessual huquqiy holatiga doir mavzudagi maxsus tadqiqot ishlari MDH tarkibiga kiruvchi davlatlarda ko'plab amalga oshirilayotganligini ta'kidlash o'rinli bo'ladi. [14]

Da'vo tartibida yuritiladigan ishlarda har bir taraf o'zining keltirgan vajlarini

isbotlashi shart, ya'ni isbotlash majburiyati taraflar zimmasida bo'ladi. Bu jarayon esa advokatdan ushbu ish bo'yicha kerakli dalillarni yig'ish va keltirgan da'vo talabidan kelib chiqib, da'vo talabini, nizo predmetiga nisbatan hujjatlar yig'inidisi bo'lgan dalillar va moddiy huquq normasi bilan asoslab berishni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda har qanday manfaatdor shaxs buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqi yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatini himoya qilish uchun qonunda belgilangan tartibda sudga murojaat qilishga haqli.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.Mamasiddiqov. Fuqarolik prosessual huquqi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Toshkent Davlat Yuridik instituti. Oliy o'quv yurti talabalari uchun Darslik. Toshkent -2012.
2. Shoraxmetov Sh.Sh. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik prosessual huquqi. Darslik. –Toshkent: Adolat, 2001. –180 s.
3. С.А. Якубов “Предмет судебной деятельности по гражданским делам.”Министерство Внутренних дел Республики Узбекистан. АКАДЕМИЯ. Ташкент 2009.-75стр.
4. E.Egamberdiyev Da'vo va uning elementlari. O'quv qo'llanma. Toshkent-2000 yil. , -40 bet.
5. Shoraxmetov Sh.Sh. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik prosessual huquqi. Darslik. –Toshkent: Adolat, 2001. –180 s., Egamberdiyev E. Fuqarolik sud ishlarini yuritish turlari. –T.: Kamalak, 1997. -13 b ,E.Egamberdiyev Da'vo va uning elementlari. O'quv qo'llanma. Toshkent-2000 yil. , -40 bet., С.А. Якубов “Предмет судебной деятельности по гражданским делам.”Министерство Внутренних дел Республики Узбекистан. АКАДЕМИЯ Ташкент 2009.-75стр. M.Mamasiddiqov. Fuqarolik prosessual huquqi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Toshkent Davlat Yuridik instituti. Oliy o'quv yurti talabalari uchun Darslik. Toshkent -2012.
6. Shoraxmetov Sh.Sh. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik prosessual huquqi. Darslik. –Toshkent: Adolat, 2001. –180 s.,
7. С.А. Якубов “Предмет судебной деятельности по гражданским делам.”Министерство Внутренних дел Республики Узбекистан. АКАДЕМИЯ Ташкент 2009.-75стр.
8. С.А. Якубов “Предмет судебной деятельности по гражданским делам.”Министерство Внутренних дел Республики Узбекистан. АКАДЕМИЯ Ташкент 2009.-75стр.
9. Гражданское процессуальное право: Учебник / С.А.Алёхина, В.В.Бланеев и др. Под ред. М.С.Шакарян. -М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2004. -51 с.

10. С.А. Якубов Стороны в гражданском процессе. Ассоциация адвокатов Узбекистана Ташкентская городская коллегия адвокатов. Ташкент -2006г. 170.стр.
11. М.Мамасиддиқов. Fuqarolik prosessual huquqi. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Toshkent Davlat Yuridik instituti. Oliy o‘quv yurti talabalari uchun Darslik. Toshkent -2012.
12. Гражданский процесс / Учебник. Отв. ред. проф. В.В. Ярков. -М.: Волтерс Клувер, 2004. – с. 59. М.Мамасиддиқов. Fuqarolik prosessual huquqi. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Toshkent Davlat Yuridik instituti. Oliy o‘quv yurti talabalari uchun Darslik. Toshkent -2012.
13. Гражданское процессуальное право: Учебник / С.А.Алёхина, В.В.Бланеев и др. Под ред. М.С.Шакарян. -М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2004. -51 с.
14. Михайлова Е.В. Правовой статус сторон в гражданском процессе Российской Федерации: Автореф. дис. канд. юрид. наук. –М., 2004. -26 с.; Балашов А.Н. Процессуальные права и обязанность сторон при рассмотрении гражданских дел в суде первой инстанции: Автореф. дис. канд. юрид. наук. –Саратов, 2005. -26 с. М.Мамасиддиқов. Fuqarolik prosessual huquqi. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Toshkent Davlat Yuridik instituti. Oliy o‘quv yurti talabalari uchun Darslik. Toshkent -2012.